

AQShning Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo strategik tadqiqotlar markazi ekspertlari bilan uchrashuv haqida

SMTda AQShning Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo strategik tadqiqotlari markazi ekspertlari bilan uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuv davomida mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga oid dolzarb masalalari muhokama qilindi.



Tomonlar bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida ro'y berayotgan yangi jarayonlarga e'tibor qaratishdi.

Shu bilan birga, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash doirasida Afg'onistondagi vaziyatga doir fikrlar almashildi. Shuningdek, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishdagi ro'li alohida ta'kidlandi.



Uchrashuv yakunida, AQShning Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo strategik tadqiqotlari markazi ekspertlari SMTI bilan hamkorlik jarayonini yuqori baholagan holda, Institut bilan kelgusidagi o'zaro aloqalarini yanada rivojlantirishga tayyor yekanliklarini ta'kidlashdi.

